

**LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNI IFODALASHDA FRANSUZ VA O'ZBEK
TILIDAGI MUOMALA MADANIYATIDAGI RASMIY VA NORASMIY MUROJAAT
SHAKLLARI.**

Sindorov.R

(SamDChTI tayanch doktoranti)

rajapboysindorov77@gmail.com

Dunyoning har qanday tili va madaniyatida murojaat shakllari ikki xil ko'rinishda, rasmiy va norasmiy tarzda nomoyon bo'ladi. Bular xuddi til va nutq kabi bir-biriga o'xshash va noo'xshash tomonlarga ega. Rasmiy murojaat o'zining keng ko'lami ishlatilishi bilan norasmiy murojaatdan anchagina farqli tomonlari mavjud. Rasmiy murojaat o'zining ilmiy ko'rinishi bilan norasmiy muomaladan butkul farq qiladi. Rasmiy murojaatlar asosan idoralarda, ta'lim muassalarida, tashkilotlarda hamda madaniyatli va ziyoli kishilar davrasida qo'llanadi. Bundan tashqari gazeta, jurnal va televideniye ko'rsatuvlarida, axborot eshittiruv kommunikatsiyalarida ham keng qo'llanadi. Shuning bilan birga xalqqa qilingan murojaat xatlarida yoki tabriq-qutlovlarida namoyon bo'ladi va yana shuni unutmashimiz kerakki rasmiy murojaatlarda shevaga xos so'zlar, jargon, argo sozlar va eskirgan, arxaik so'zlarda foydalanish man etiladi. Rasmiy murojaat shakllarini ko'rish mumkin bo'lgan yana bir qancha joylar mavjud. Bular armiya saflarida yoki ikki davlat o'tasidagi delegatsiyalar jarayonida ko'rinadi. Masalan shu kabi iboralar “rostlan” “tekislan” “olg'a qadam bos” singari yoki bo'lmasa, “oddiy askar, Abdunazarov, olg'a qadam bos”, bunga javob “o'rtoq mayyor oddiy askar Abdunazarov buyrug'ingiza binoan yetib keldi” deb javob qaytarish mumkin. Bundan tashqari qasamyod jarayonida “vatanimga xizmat qilaman” kabi rasmiy murojaat shakllaridan foydalanishga odatlanishgan. Delegatsiyalar jarayonini kuzata turib ular o'rtasida, “hurmatli, O'zbekiston Respublikasi prezidenti, Shavkat Mirziyoyev Miromonovich, sizning tashrifingizdan bag'oyat mamnunmiz, boshimiz ko'kka yetdi” degan murojaat shakllariga guvohi bo'lamiz. Endi esa, norasmiy murojaatlarga to'xtalib o'tsak, bu murojaat shakli adabiylikdan yiroqroqligi bilan ajralib turadi. Bunday murojaat shakliga ega bo'lgan muloqotlardan do'stlar orasida, “salom, Dadik, qalesan ishlaring chotkimi” “nimala qivotsan” kabi noadabiy muomala shakllari qo'llaniladi. Oilada, ko'cha- kuyda, bozor va maydonlarda ham keng ko'lamlil ko'rinishlari mavjud, “qo'zichog'im, uhayapsanmi?”, “kep qoling, ey, odamlar, sotamanu...” “oshir, ey, bu yoqqa oshir” singari ko'plab shakllari mavjud. Bularni qisqa qilib ko'cha tili deb atash mumkin. Norasmiy murojaatning eng ahamiyatli jihatlaridan biri uning adabiy tildan yiroqligidir. Unda shevaga xos so'zlar, jargon va argo so'zlar, eskirgan so'zlar ham faol qatnashadi.

Murojaat jarayoni, avvalo, o'zbeklarda ham fransuzlarda ham birdek salomlashishdan boshlanadi. Bu ikki yurt bir-biridan qanchalik uzoqda jolashmasin, ayollar va erkaklar murojaat tarzi bir-biridan katta farq qiladi. Murojaat turli ijtimoiy tabaqaga mansublikka, yashash manzili (qishloq yoki shahar)ga, muayyan ruhiy holatga, kim bilan so'rashayotganiga ko'ra, shuningdek boshqa muloqot vaziyatlariga qarab ham turlicha amalga oshirilishi mumkin. Salomlashish jarayonida noverbal vositalardan ham unumli foydalaniladi. Shuningdek, turli yoshdagi kishilar salomlashishlari yoki ko'rishishlarida ham o'zaro katta farq bor. Muomala madaniyati insonning ijodiy kuchi va aqliy qobiliyati, tafakkur salohiyati va dunoqarashining muayyan darajasi hisoblanadi. Muomalaning madaniyat atamasi bilan bog'liqligi ham uning ma'naviy hayot sohasiga daxldorligidir. Zero, har bir xalq o'ziga xos madaniyat yaratadi va shu madaniyat tufayli o'zligini angaydi, jahon taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir davr, ijtimoiy tuzum insoniyat oldiga u yashab turgan hayotni real idrok qilish, mavjud ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma'naviy salohiyatdan yangicha, o'z istiqboli manfaatlaridan kelib chiqib foydalanish, turlicha mazmundagi an'analarni zamon talablariga moslab isloh qilish masalalarini ko'ndalang qilib qo'yadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ona tilimiz – o'zbek tilini yanada rivojlantirish va kamol toptirish haqida doimo qayg'urib keladi. Uning quyidagi fikrlari buning yorqin isbotidir: “Biz avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanilishi darajasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir”²⁴.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, uni o'rganish va xalqqa yetkazib berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi²⁵.

Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayonida ham e'tiborga olinishi lozim. Garchi bu fanni o'rganishdagi ko'plab qonun-qoidalar, til materialini doirasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan yuz bersa-da, tilning sosiolingvistik jihatlari, uni amalda qo'llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu, dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida

²⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 – B. 87.

²⁵ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari: ma'naviy qadriyatlar va milliy mulkni anglashning tiklanishi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 254 b.

me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog'liq. Muloqot matni nutqiy faoliyat jarayonida nutqiy aktlar ketma- ketligi asosida hosil bo'ladi. F. De Sossur sintagma tushunchasiga ta'rif berayotib, uni ketma- ket kelayotgan kamida ikkita birlikdan iborat bo'lishi shartini qo'yadi: masalan, *re-lire* (qayta o'qimoq) *contre tous* (hammaga qarshi), *la vie humaine* (inson hayoti) *s'il fait beau temps nous sortons* (agarda havo yahshi bo'lsa, aylanishga chiqamiz) va hakoza. Aslida, nutqiy faoliyatining o'zi mohiyatan sintagmatik qatordan iborat, chunki biz alohida belgilar vositasida emas, balki belgilar birikmalari vositasida so'zlaymiz. Shuning uchun ham lisonida barcha mohiyat farqlar bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki birikuvlarga ham kelib taqiqladi. Demak, muloqot matni tarkibidagi nutqiy aktlarning lisoniy – kommunikativ mohiyatini to'liq tavsiflash talabi ularning sintagmatik qatorlarini ham aniqlash ehtiyojini tug'diradi. Aynan shu ehtiyojini qondirish uchun bo'lsa kerakki, pragmatikada nutqiy akt tushunchasini boshqacha talqin qilish va hatto uni boshqa atamalar bilan almashtirish niyati ham yo'q emas. Binobarin, U.Edmonson kommunikativ faoliyatining kichik birligini “interatsiya akti” deb atashni taklif qiladi, chunki bu atama muloqotning hamkorlikda kechayotgan faoliyat ekanligini o'zida aks ettiradi (interact- o'zaro munosabat, ikki tomonlama). T. van Deyk kommunikativ akt tushunchasini ma'qul ko'radi va ushbu tushuncha so'zlovchining nutqiy harakati, tinglovchining qabul qilish harakati va kommunikativ vaziyat kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishini qayd etishdi. I.P. Susov ham muloqot tizmining eng kichik birligi sifatida nutqiy xarakterli almashinuvidan iborat bo'lgan oddiy interaktsiyani, ya'ni ikki qisimli, dialog tuzilishidagi birlikni tanlashni ma'qul ko'radi hamda ushbu turdagi mikrodialog yoki dialogik birlikni ushbu tizimning eng katta birligi – makrodialog tarkibida o'rganishi tavsiyasini beradi. Bunday talqinda nutqiy akt kichik va katta (mikro va makro) birliklarni tarkib toptiruvchi elementlar sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 – B. 87.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari: ma'naviy qadriyatlar va milliy mulkni anglashning tiklanishi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 254 b.
3. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом ettirib, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.592
4. Armand Colin. Paris, 2006, 418 p
5. Bally. C, A. Sècheyaye , Ferdinand de Saussure. Cours de linguistique générale, Payothèque. Paris, 1975, 214 p.
6. Bénac.H, B. Réauté , Nouveau vocabulaire de la dissertation et des études littéraires, Hachette. Paris, 1986 , 248 p.

7. Galichet G. Grammaire structurale du français moderne. P., 1970, 411 p
8. Garnier.y, M. Vinciguerra , Le Petit Larousse illustré. Paris, 2006, 615 p.